

2024-2030 YILLARDA BARQAROR RIVOJLANISH MADANIYATINI ILGARI SURISH HAMDA BOLALAR VA YOSHLARNI IQLIM KUN TARTIBIGA JALB QILISH XALQARO STRATEGIYASI

1-BOB: UMUMIY QOIDALAR

2024-2030-yillarda barqaror rivojlanish madaniyatini ilgari surish hamda bolalar va yoshlarni iqlim kun tartibiga jalb qilish xalqaro strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Strategiya) davlat organlari, ta’lim muassasalari, jamoat va ilmiy tashkilotlar, bolalar va yoshlar, shuningdek, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq faoliyatda ishtirok etuvchi boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida samarali hamkorlik uchun global asos yaratadi. Ushbu strategiya bolalar va yoshlarning sog‘lom atrof-muhitda yashash huquqini ta’minlashga va ularning iqlim jarayonlarida xalqaro darajada faol ishtirokini kengaytirishga qaratilgan.

Strategiya inklyuzivlik va barcha uchun teng imkoniyat yaratishga e’tibor qaratib, geografik joylashuvi, etnik mansubligi, dini, ijtimoiy-iqtisodiy maqomi va jismoniy imkoniyatlaridan qat’i nazar barcha bolalar va yoshlarni ularning ekologik masalalarni hal qilishga jalb qilishni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu strategiya turli ijtimoiy qatlamlardagi bolalar va yoshlarga ekologik tashabbuslar va qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratish, barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va targ‘ib qilish va global ekologik mas’uliyat madaniyatini shakllantirishni maqsad qiladi.

Strategiyaning asosiy maqsadi — iqlim o‘zgarishi tufayli kelib chiqadigan ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishda bolalar va yoshlarning ustuvor rolini tan olish va belgilash. U yoshlarni iqlimga oid harakatlarga jalb qilish, safarbar qilish va ularning faol ishtirokini rag‘batlantirish hamda ekologik madaniyatni shakllantirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini anglash uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan.

Strategiyaning muhim jihati uning xalqaro standartlarga va tashabbuslarga, jumladan, BMT tashabbuslariga muvofiqligidadir. Bularga quyidagilar kiradi:

1. YUNISEFning bolalar, yoshlar va iqlim sohasidagi harakatlar to‘g‘risidagi deklaratsiyasi imzolangani, u davlatlarni bolalarning ehtiyojlari, huquqlari va manfaatlarini o‘z iqlim siyosati va faoliyatiga integratsiya qilish majburiyatini yuklagani.

2. BMTning global ekologik ta’lim (GEP) tashabbusi qo‘llab-quvvatlangani. Ushbu tashabbus pedagoglar, o‘quvchilar va jamiyatning iqlim o‘zgarishiga bardoshlilikini oshirish uchun ta’limni asosiy vosita sifatida qo‘llashga qaratilgan. Shuningdek, ta’lim tizimlarining iqlim o‘zgarishiga chidamliligini oshirishga va

iqlim ta'sirlaridan himoyalangan maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarni barpo etishga ko'maklashadi.

"Yashil" ta'lim va barqaror rivojlanish madaniyatini global miqyosda joriy qilish uchun quyidagi tadbirlarni o'z ichiga olgan poydevorni mustahkamlash zarur:

– Klassik muhandislik va ekologik ta'lim tizimini, shuningdek, geografik, biologik, geologik va iqtisodiy ta'lim tizimlarini o'zgartirish.

– Maktabgacha va o'rta ta'lim standartlarini qayta ko'rib chiqish va ularga barqaror rivojlanish elementlarini kiritish.

– Barqaror rivojlanish maqsadlari va "yashil" ta'limni standartlarni ishlab chiqish va ta'lim sohasini islohi qilish va rivojlantirish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish jarayonlariga integratsiya qilish.

Strategiya xalqaro tajribaga asoslangan bo'lib, turli hududlardagi ta'lim an'analarning bardavomligi, fanlararolik, fundamentallik va majmuaviylik kabi tamoyillarini hisobga oladi. Tegishli ta'lim insonning XXI asrda global barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarur ekologik va etik normalar, qadriyatlar, ko'nikmalar va hayot tarzini o'zlashtirishiga ko'maklashishi lozim.

Ushbu strategiya BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) vazifalariga muvofiq amalga oshiriladi va quyidagi xalqaro kelishuvlarga tayanadi:

– **6-modda bo'yicha Doxa ish dasturi:** Ta'lim, o'qitish va jamoatchilikni xabardor qilish.

– Iqlim to'g'risidagi konvensiya doirasida vazirlarning **ta'lim va xabardorlikni oshirish bo'yicha Lima deklaratsiyasi.**

– **BMT EIKning barqaror rivojlanish uchun ta'lim strategiyasi:** Bu strategiya barqaror rivojlanish uchun ta'lim "insonlarni bilim va maxsus ko'nikmalar bilan ta'minlaydi, ularning kompetentligi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda tabiat bilan uyg'unlikda sog'lom va samarali hayot kechirishlari hamda ijtimoiy qadriyatlar, gender tenglik va madaniy xilma-xillik to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari uchun imkoniyatlarni kengaytiradi", deb ta'kidlaydi.

Ko'rsatilgan hujjatlarda yoshlar orasida barqaror rivojlanish qadriyatlarini anglash va qabul qilish, ularni ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishga jalb qilish muhimligi ta'kidlanadi.

Ushbu strategiya Markaziy Osiyo, Turkiya, Ozarbayjon va Vengriyada iqlim kun tartibida faol ishtirok etayotgan bolalar va yoshlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va ularning manfaatlari va talablarini hisobga oladi.

2-BOB: EKOLOGIK TA'LIM VA "YASHIL" KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

"Yashil" ta'lim iqlim o'zgarishiga qarshi global kurashning eng muhim elementidir, biroq uning amalga oshirilishi turli mintaqalarda juda farq qiladi. Ushbu Strategiya butun dunyoda ekologik ta'limga yanada muvofiqlashtirilgan va tizimli yondashuv zarurligini, uni ham rasmiy, ham norasmiy ta'lim tizimlariga integratsiya qilish kerakligini tan oladi.

Ekologik ta'lim va "yashil" ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlari maktabgacha ta'limdan boshlab barcha ta'lim darajalarida o'quv rejalari va sinfdan tashqari ta'limga kiritilishi lozim.

Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim va "yashil" ko'nikmalarga jalb qilish tabiiy hodisalarni kuzatish, tajribalar o'tkazish va situativ suhbatlar kabi ma'rifiy-tadqiqot faoliyatini o'z ichiga olishi kerak. Maktab darajasida esa o'quvchilarda resurslarni tejash ko'nikmalarini shakllantirish uchun integrativ yondashuv zarur bo'lib, bu amaliyot darslarini ko'paytirishni o'z ichiga oladi. Bu darslar o'quvchilarga sinfda ham, uning tashqarisida ham turli loyihalarda faol ishtirok etish imkonini berishi, shu orqali o'quv dasturlarini real ekologik muammolar bilan bog'lashi kerak.

Maktablarda ekologik ta'limni yanada rivojlantirish uchun bolalar va yoshlarni ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etish imkonini beradigan dasturlarni joriy qilish zarur. Bunday amaliy yondashuv ekologik va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan birga, ekologik madaniyatni o'quvchilar hayotiga joriy qilish va ularni kelgusidagi ekologik muammolarni samarali hal qilishga tayyorlash imkonini beradi.

3-BOB: YOSHLARNING IQLIMGA OID HARAKATLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH

Hozirgi bolalar va yoshlar atrof-muhit tanazzulining uzoq muddatli oqibatlarini o'z tajribalarida his qiladigan avloddir. Iqlim o'zgarishi ularning ham buguni, ham kelajagini shakllantirmoqda.

Shu sababli o'smirlar va yoshlar o'z hamjamiyatlarini xabardor qilish va safarbar etish bo'yicha yoshlar ekologik tashabbuslari orqali quyi darajadagi harakatlarda faol tashabbus ko'rsatmoqda. Shuningdek, yoshlar iqlim o'zgarishi bo'yicha muzokaralarda, jumladan, BMT IO'HK raisligi doirasida iqlim bo'yicha yoshlar chempioni YOUNGO kabi institutsionallashgan yoshlar platformalari orqali BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyalarida (KOP) ham faol ishtirok etib kelmoqda.

Bolalar va yoshlar yoshlar rahbarligida amalga oshiriladigan dasturlar va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda yoshlarning faol ishtiroki va ijobiy o'zgarishlar uchun harakat qilishlarini rag'batlantirish uchun ularga doimiy ko'mak va sarmoya zarur. Yoshlarga mahalliy, milliy va mintaqaviy darajada iqlimga oid qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishlari uchun institutsional platformalar

kerak. Yoshlar samarali tashviqot, muzokaralar va kampaniyalar o'tkazish uchun axborot va ko'nikmalarga muhtoj.

4-BOB: MAQSAD VA VAZIFALAR

Ushbu strategiyaning maqsadi — bolalarning sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, ekologik ta'lim va "yashil" ko'nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, milliy, mintaqaviy va global miqyosda ekologik jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish uchun zarur institutsional va ma'muriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

Strategiyaning asosiy maqsadlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Butun dunyoda bolalar va yoshlarning iqlim o'zgarishi va iqlim boshqaruvi jarayonlarini tushunishlarini yaxshilaydigan, kelajakdagi chaqiriqlarga moslashish va ularni yumshatish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradigan ta'lim, axborot va resurslarga ega bo'lishlarini ta'minlash;
- "Yashil" ta'limni joriy etish bo'yicha umumiy global nazar va tegishli milliy siyosatlar va harakatlar rejasini ishlab chiqish, shuningdek, tegishli o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish;
- Milliy va xalqaro darajada ekologik masalalar bo'yicha yoshlarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish va siyosat ishlab chiqishni rag'batlantirish uchun umumiy konsepsiya va tegishli milliy platformalarni yaratish;
- Bolalar va yoshlarning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashdagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash va kuchaytirish uchun mamlakatlar va turli manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash va sherikliklar o'rnatish;
- Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida "yashil" ta'limni qo'llab-quvvatlash, barqaror infratuzilma va "yashil" ta'lim muhitini yaratish uchun ta'lim muassasalarining salohiyatini mustahkamlash.

4-BOB: TATBIQ ETISH TIZIMI

Ushbu Strategiyaning maqsad va vazifalariga erishish uchun milliy va xalqaro darajadagi barcha tegishli organlarning harakatlarini muvofiqlashtirish zarur. Strategiya global darajada sherikliklar yaratish, mamlakatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, jinsi, etnik mansubligi, dini yoki nogironlik holatidan qat'i nazar barcha bolalar va yoshlar tabiatni muhofaza qilish tadbirlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi.

Strategiya, shuningdek, bolalar va yoshlar barqaror xulq-atvorni amalda qo'llashlari mumkin bo'lgan qulay muhit yaratishga chaqiradi — masalan, plastikdan foydalanishni qisqartirish, elektr energiyasi iste'molini kamaytirish va "yashil"

yechimlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish. Ta'lim muassasalarini qurish va ta'mirlashda "yashil" yechimlardan foydalanish, yashil maydonlarni asrash hamda tabiiy fanlar va ekologiya bo'yicha amaliy darslarni joylarda o'tkazish barqaror amaliyotlarni namoyon qilishning samarali usuli bo'ladi.

Ushbu strategiyaning amalga oshirilishi Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va 6-modda bo'yicha Doxa ishchi dasturi, Iqlim konvensiyasi doirasida vazirlarning ta'lim va xabardorlikni oshirish bo'yicha Lima deklaratsiyasi hamda BMT YeIKning barqaror rivojlanish uchun ta'lim bo'yicha strategiyasi kabi xalqaro kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

5-BOB: YOSHLARNING TAKLIFLARI

1. Bolalarning sog'lom atrof-muhitga bo'lgan ajralmas huquqini amalga oshirish

- Bolalar, ayniqsa qishloq va marginallashtirilgan hamjamiyatlarda yashayotganlar iqlim o'zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishi oqibatlariga ayniqsa ta'sirchan ekanligini tan olish.
- Bolalarga yo'naltirilgan, oziq-ovqat, sanitariya, sog'liqni saqlash, toza suv va havodan bahramandlikni ta'minlagan holda hamjamiyatlar barqarorligini oshiradigan adaptatsiyaviy strategiyalariga sarmoya kiritish.
- Bolalarga tushunarli tarzda iqlim va ekologik hujjatlar va siyosatlarni kiritish yo'li bilan bolalarning o'z huquqlari va imkoniyatlari haqida xabardorligini oshirish.
- Kompleks strategiya yordamida uy xo'jaliklarida elektr ta'minoti, isitish va ovqat tayyorlashga alohida e'tibor qaratgan holda ekologik toza energiya manbalariga o'tishga ko'maklashish.
- Ekologiya, iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish (ofatlar xavfini kamaytirish) bo'yicha bolalar huquqlarini himoya qilish uchun mintaqaviy va global sherikliklar yaratish.

2. Bolalar va yoshlarning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlardagi ishtirokining ahamiyatini oshirish

- Milliy yoshlar parlamentlari va hukumat organlari, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati tashkilotlari (FJT) huzurida yoshlar maslahat guruhlarini tashkil etish orqali yoshlarni qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qilish.
- Yoshlarning iqlim o'zgarishi bo'yicha tashabbuslarini mintaqaviy va global darajada moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash uchun "Yoshlar iqlim fondi"ni tashkil qilish.

- Yoshlarning iqlim sohasidagi qo‘shma tashabbuslari, hamkorligi va transchegaraviy yechimlarni rivojlantirish uchun turli mintaqa va mamlakatlardagi yoshlarni birlashtiruvchi Yoshlar iqlim tarmog‘ini tashkil qilish.
- Yoshlar xalqaro forumlar va muzokaralarda qatnashishi uchun ko‘proq imkoniyatlar taqdim etib, yoshlarning iqlim bo‘yicha qarorlar qabul qilish platformalardagi global ishtirokini oshirish.

3. Uzluksiz “yashil” ta’lim va ekologik madaniyatni shakllantirish orqali bolalar va yoshlarning salohiyatini mustahkamlash

- Tushunarli ta’lim kontentini (teledasturlar, hujjatli filmlar, multfilmlar, qo‘shiqlar, kitoblar, o‘yinlar va h.k.) yaratib, milliy va global ommaviy axborot vositalari orqali bolalarning o‘z huquqlari haqida xabardorligini oshirish va ekologik bilimlarini oshirish.
- Iqlimga oid ta’limni uni maktab dasturiga kiritish yoki ta’lim sohasidagi milliy siyosatga muvofiq iqlim o‘zgarishiga bag‘ishlangan yangi fanni qo‘shish orqali yoshlar orasida ilgari surish.
- Iqlim masalalarini debatlar, BMT IO‘HK Tomonlari Konferensiyasi ishini modellashtirish, badiiy tanlovlar, iqlimga ta’sir qilgan hududlarga sayohatlar, yoshlar ekologik klublari va ekologik volontyorlik kabi maktabdan tashqari tadbirlarga kiritish.
- Maktab seminarlari, ota-onalar yig‘ilishlari va aholi bilan ishlash dasturlari orqali ota-onalarning ekologik va iqlimga oid faollikning xavfsizligi va muhimligi to‘g‘risidagi xabardorligini oshirish.

4. Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi siyosatning Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) muvofiqligini ta’minlash

- Qiziqarli bo‘ladigan, bolalarning ishtirokiga yo‘naltirilgan hamda maktabgacha va maktab ta’limi yoshiga mos keladigan BRMga bag‘ishlangan o‘quv dasturini ishlab chiqish.
- Bolalar ekotizimdagi o‘z rolini tushunishi uchun mahalliy madaniy, iqtisodiy va diniy xususiyatlarni hisobga olgan holda kontekstli ta’limni ta’minlash.
- Iqlimga moslashish va tabiiy resurslarni boshqarish bo‘yicha eng yaxshi mahalliy yechimlardan foydalangan holda bolalar va yoshlarni "yashil" ko‘nikmalarga va o‘z bilimlarini amaliyotda boshqalar bilan bo‘lishishga o‘rgatish.
- Iqtidorli talabalarni yanada ilgari surish hamda mahalliy va milliy hokimiyat organlariga jalb qilish.
- Iqlim o‘zgarishi va BRM bo‘yicha ta’limni o‘quv jarayoniga kiritish, shuningdek, bo‘lajak pedagoglar va o‘qituvchilarni tayyorlashda tarmoqlararo istiqbolni hisobga olish.
- Ushbu mavzuni sertifikatlash imkoniyati bilan muntazam o‘quv kurslari materiallariga kiritish orqali BRM bo‘yicha o‘qituvchilar salohiyatini qulay formatda oshirish.

- Iqlim va BRM uchun kurash tarafdorlarini jalb qilgan holda "teng-tengga" tamoyili asosida o'qitish imkoniyatini yaratish.
- BRMga erishishga qaratilgan tashabbuslarni, ayniqsa, zaif va marginallashtirilgan guruhlar, bolalar va yoshlar manfaatlarini hisobga olgan holda moliyalashtirishni ta'minlash.